
Akademik litseylarga hujjatlar 10-iyundan onlayn qabul qilinadi

Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirining **"2023/2024-o'quv yili uchun akademik litseylarga o'quvchilarni o'qishga qabul qilish jarayonini tashkil etish to'g'risida"**gi buyrug'i tasdiqlandi.

Unga ko'ra, akademik litseylarga hujjat topshiruvchilarni ro'yxatdan o'tkazish Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining "Yagona ta'lim xizmatlari portali" my.edu.uz platformasi orqali joriy yil **10-iyundan 30-iyunga qadar** bepul amalga oshiriladi.

Respublikamizdagi umumta'lim maktablari o'quvchilari haqidagi **ma'lumot platformada avtomatik shakllanadi**. Faqat ular imtiyoz beruvchi hujjat va 3,5x4,5 hajmdagi fotosurat (agar pasport/ID olmagan bo'lsa) yuklashlari zarur bo'ladi.

Ayrim abituriyentlar ro'yxatdan o'tish jarayonida platforma orqali quyidagi hujjatlarni yuklaydi:

- xorijiy davlatda umumiy o'rta ta'lim olganlik to'g'risidagi hujjatning tan olinganlik (nostrifikatsiya) haqidagi ma'lumotnomasi (**agar O'zbekiston fuqarosi bo'lgan abituriyent maktabning 9-sinfini xorijiy davlatda tamomlagan bo'lsa**);
- o'qishga imtiyozli kirish huquqini beruvchi hujjatlarning asli (**fan olimpiadasi, tanlovlar, musobaqa g'olibi ekanligini tasdiqlovchi**), diplom, sertifikat, guvohnoma, shuningdek, chet tili va umumta'lim fanlarini bilish darajasi to'g'risidagi milliy yoki xalqaro sertifikat (**agar mavjud bo'lsa**);
- abituriyentning **3,5x4,5 hajmdagi** fotosurati (**agar abituriyent tug'ilganlik haqidagi guvohnomasi bilan ro'yxatdan o'tgan bo'lsa**).

Shuningdek, platformada:

- abituriyent **ta'lim yo'nalishi, tili, qaysi chet tilidan kirish** test sinovini topshirishini ko'rsatadi;
- ularga uchtagacha akademik litseyning **ta'lim tili bir xil bo'lgan bittadan mos yo'nalishini** tanlash imkoniyati beriladi.